

KIBER JINOYATCHILIKKA – KIBER XAVFSIZLIK

IIV Akademiyasi 3-bosqich kursanti

Qayumova Dilshoda Xusanboy qizi

Annotatsiya: Maqolada kibermakon, kiberjinoyat tushunchalari, uning mohiyati, unga qarshi kurash, muammolar, yechimlar haqida so`z boradi. Dunyo bo`yicha kuzatilayotgan holat, O`zbekistonda kiberjinoyatga qarshi qilinayotgan sa`y-harakatlar, bajarilishi lozim bo`lgan ishlar yoritiladi.

Kalit so`zlar: Kiberjinoyat, kibermakon, statistika, muammo, internet, kompyuter, dastur, fuqaro, jinoyat tarixi.

Axborot texnologiyalari jadallik bilan rivojlanib borayotgan bir vaqtda, internet tarmoqlari butun dunyo jamiyatiga, insonlarning hayoti, mulki, daxilsizligiga ham bir qancha muammolar olib kelmoqda. Hozirgi kunda ma`lumotlarni xavfsiz saqlash ularga nisbatan bo`lishi mumkin bo`lgan hujumlardan himoya qilish eng katta muammolardan biridir. Masalan “CIBER” iborasini eshitganimizda hammaning hayolida kundan -kunga jadallik bilan rivojlanishda bo`lgan, ko`plab insonlarni og`ir ahvolga solib qo`ygan kiber jinoyatchilik gavdalanadi. Ushbu sohada turli kompaniyalar hamda davlat hukumatlari tomonidan kiber jinoyatlarning oldini olish uchun ko`plab ishlar amalga oshirilmoqda, qonunchilik palatalari tomonidan yangidan- yangi qonunlar ishlab chiqilmoqda. Lekin amalga oshirilayotgan ishlar natijasida kiber jinoyatchilik hali ham o`z xavfini insonlarga tarqatib kelmoqda. Fuqarolar ongida va turmushida hozirga qadar kiber jinoyatchilik haqida tushunchaning yetarli darajada shakillanmaganligi kiber jinoyatchilikning qurboni bo`lishga olib kelmoqda. Asli kiber makon kiber jinoyat tushunchalari bizga dastlab qayerdan kirib keldi?,

Kompyuter tarmoqlari orqali amalga oshiriladigan muloqot maydonini ifodalovchi vodelik sifatida 1990 yildan boshlab keng miqyosda rivojlanib,

takomillashib kelmoqda. Kibermakon tushunchasini dastlab kundalik yozuvchi Uil`yam Gipson 1982 yil “Sojjenie Xrom” nomli hikoyasida yozadi. Keyinchalik, Gipsonning 1990 yilda yozib tugatgan “Neuromancer” nomli texno- utopik fantastic trilogiyasida qo`llagan. Bu asardagi kibermakon tushunchasi millionlab odamlarning jamoaviy sarob, xayolparastlik o`ziga xos ko`rinishi sifatida tasvirlangan. Bu yerda jamoaviy sarob, xayolparastlikning inson ongida subektiv psixologik holat sifatida namoyon bo`ladi. Ijtimoiy nuqtai nazardan kibermakon deganda kompyuter tarmog`i orqali bir biri bilan bog`langan va bir vaqtning o`zida turli geografik sifatidagi malumotlariga o`ralashib qolgan kishilar jamoasi tushuniladi.

Hozirgi davrda fan, texnika va asosan kompyuter taraqqiyoti mahsuli bo`lgan kibermakon va uning boshqaruvchisi qiyofasi “superkorporatsiya” texnologiyalarining Insoniylikdan begonalashuvi natijasida din niqobidagi ijtimoiy va madaniy buzg`unchilikni sodir etishga bo`lgan urishlar tobora kuchayib bormoqda. Jumladan, bugungi kunda kiberterrorchilik tuzilmalari o`z g`arazli maqsadlari yo`lida axborot – kommunikatsiya texnologiyalaridan keng foydalanishga urinmoqda. Kiber makon haqida O`zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti I.A.Karimovning “ Yuksak ma`naviyat -yengilmas kuch” asarida quyidagicha takidlangan: “ Taassufki, ba`zan islom dini va diniy aqidaparastlik tushunchalarini bir biridan farqlay olmaslik yoki g`arazli maqsadda ularni teng qo`yish kabi holatlar ham ko`zga tashlanmoqda. Shu bilan birga, islom dinini niqob qilib, manfur ishlarni amalga oshirayotgan mutassib kuchlar hali ongi shakillanib ulgirmagan, tajribasiz, g`o`r yoshlarni o`z tuzog`iga ilintirib boshko`zini ayantirib ulardan o`zining nopok maqsadlari yo`lida foydalanmoqda. Bundan nojoya harakatlar avvalo muqaddas dinimizning sha`niga dog` bo`lishini, oxir-oqibatda esa ma`naviy hayotimizga salbiy ta`sir ko`rsatishini barchamiz chuqur anglab olishimiz va shunday xulosa chiqarishimiz zarur”.

“Kiber makon” da din niqobidagi “kiber hujumlar” tahdidi: din niqobi ostidagi ekstramistik saytlarda asosan davlat to`ntarilishi va xunrezlik urishlari haqida gap boradi. Jumladan bugungi kunda dunyoda eng katta xavf solib turgan

ISHID guruhining internet kibermakondagi axborot hujumi va tahdidini keltirib o'tish mumkin. Ularda ISHID go'yo islom yo'lida "qurbon" bo'layotgani aks etgan videolavhalar va fotosuratlar joylashtirilgan. Terrorchilarning targ'ibot-tashviqotlari kun sayin avj olib bormoqda. "odnoklassniki", "twitter", "VKontakte", ijtimoiy tarmoqlarida buzg'unchilik va yot g'oyalarni targ'ib qiluvchi yuzlab guruhlar mavjudligi fikrimizning yaqqol dalilidir. Shuningdek, Islom dinini noto'g'ri, qabih maqsadlarda talqin etish dinga siyosiy tus berib, hokimiyatni qo'lga kiritish hisoblanadi.

Qadim davrlardan buyon axborotni o'zaro urish va nizolar jarayonida hujum uyushtirish yoki himoyalash resursi sifatida talqin etishga urinishlar bo'lib keladi. Biroq hozirgi kelib ilmiy doirada "axborot urishi", kategoriya sifatida rasmiylashdi, bundan urishlarning moxiyatini anglashga doir metodologik yondashishlar, nazariyalar shakillandi. "Bunday sharoitda, - deb yozadi NA.Kostin, - axborot dunyo sahnidagi tarixiy raqobat kechadigan sohaga aylanib, "axborot urishi" deb nomlanayotgan faol kurash shakli paydo bo'lmoqda".

Bugungi kunda axborot urishlari haqida ko'p yozilmoqda. Bu tushunchaning paydo bo'lish tarixi, ilk marotaba qo'llanilishi haqida turli, bazida bir-biriga zid fikir mulohazalar mavjud. Ularga alohida ravishda to'xtalmagan holda, bu boradagi ayrim nuqtai nazarlarga e'tiborni qaratish joiz. Manbalarda ta'kidlanishicha, "axborot urishi" atamasi ilk bor 1976 yil "Boeing" kompaniyasi uchun tayyorlangan "Qurol tizimi va axborot urishi" deb nomlangan hisobotda Tomas Rona tomonidan ishlatilgan. Hujjatda mutahassis axborot infratuzilmasi AQSH iqtisodiyotining muhim komponentiga aylanib borayotgan axborot sohasi ham, urish han tinchlik holatlarida nozik, zaif tarmoq bo'lib qolayotganini ta'kidlagan. T.Rona tomonidan ilgari surilgan ushbu g'oya harbiylar ommaviy axborot vositalar xodimlarida katta qiziqish uyg'otti, bu borada ilmiy tahlillar, intervyular, chiqishlar avj oldi. 1980 yillarga kelib esa jamoatchilikda axborotning maqsad hamda qurol, vosita sifatida namoyon bo'lishi haqida yagona xulosa shakillandi. Sovuq urishning nihoyasi va AQSH oldida yangi vazifalar paydo bo'lishi bilan axborot urishi atamasi mudofaa vazirligi hujjatlariga kiritildi.

1991 yil Sahrodagi bo`ron operatsiyasi mobaynida axborot texnologiyalari ilk marotaba harbiy harakatlarning vositasi sifatida ishlatildi. 1996 yil Pentagon eksperti Robert Banker AQSH mudofaa kuchlarining XXI asr uchun yangi harbiy doktrinasiga bag`ishlangan ma`ruza qildi. Unda mutaxassis harbiy harakatlar teatrini ananaviy harbiy konitseptsiyalarning tabiiy to`ldiruvchisi sifatida xizmat qiluvchi zarur bo`lgan “ kibermanyovr” doktrinasini taklif etadi. Shu tariqa quruqlik, dengiz, havo yo`llaridan tashqario harbiy harakatlar tizimiga “infomakon” axborot makoni ham qo`shildi. Mana shunday tarix bilan kiber jinoyat mamlakatimizga jinoyatlarning yangi turi sifatida kirib keldi.

Shu o`rinda ushbu jinoyatning bugungi kunda Namangan viloyatidagi holatini o`rganib chiqadigan bo`lsak, sitatistik ma`lumotlarga ko`ra Namangan viloyatida joriy yilning 4 oyi davomida axborot texnologiyalaridan foydalanib jami 70 dan ortiq jinoyatlar sodir etilgan bo`lib, ularning 30 ga yaqini tashabbus bilan aniqlangan jinoyatlarni, qolgan qismi esa turli xil usullarda pul mablag`larini noqonuniy o`zlashtirib olish bilan bog`liq jinoyatlarni tashkil etadi.

Ushbu jinoyatlarning 40 ga yaqini o`g`irlik jinoyati tashkil etadi. Achinarlisi shuki, jinoyatlar natijasida fuqarolarga jami 450 mln. so`mdan ziyodzoq miqdorda moddiy ziyon yetkazilgan. Bugungi kunda bu turdagi jinoyatlarning 35% fosh etilmasdan qolmoqda. Shu kabi ko`rsatgichlarni yo`q qilish va jamoaychilik orasida jabrlanganlar sonini keskin yo`qotish maqsadida turli hil targ`ibot tashviqot ishlari amalga oshirilmoqda. Bunga esa misol qilib kuni kecha O`zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasida kiber jinoyatchilikka qarshi kurashishning huquqiy ta`minlash masalalariga bag`ishlangan Respublika ilmiy- amaliy konferensiyasi bo`lib o`tganligini keltirishimiz mumkin. O`zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Qonunchilik va huquqiy siyosat institute, IIV Kiberxavfsizlik markazi, Tergov departamenti, Toshkent davlat yuridik unversiteti, Huquqni muhofaza qilish akademiyasi vakillari ishtirokida o`tkazilgan anjumanda dolzarb ahamiyatga molik fikr-mulohazalar bildirildi. Bu esa mamlakatimizda kiber jinoyatchilik masalasiga va taqdiriga bo`lgan e`tiborning kuchli ekanidan dalolat beradi.

Xo`sh jamiyatimizda farovon yashash uchun mana shunday kurash ketayotgan bir paytda yana nima qilsak jinoyatga qarshi samarali kurashgan bo`lamiz?, va bu kurashda bizga kimlar yordam berishi lozim ?

Jamiyatimizdan jinoyatning mana shunday turlarini yo`qotish va undan fuqarolarning aziyat chekishini bartaraf etish uchun bugungi kunda nafaqat qonunlar ularni ishlab chiqayotgan va kurashayotgan davlat organlari va mansabdor shaxslari emas balki ular bilan tengma – teng fuqarolar ham harakat qilishi lozim. Shunda amalga oshirilayotgan harakatlar o`z samarasini beradi, fuqarolar orasida esa aziyat chekayotganlar soni kamayadi.

Adabiyotlar.

1. Baić, V. (2018). *Kriminalistička psihologija*. Belgrade: The Academy of Criminalistic and Police Studies.
2. Bjelovuk, I. (2016). *Praktikum za kriminalističku tehniku*. Belgrade: The Academy of Criminalistic and Police Studies.
3. Ivanović, Z., Bajić, V. (2016). *Taktika obezbeĐivanja iskaza*. Belgrade: The Academy of Criminalistic and Police Studies.
4. Jovašević, D. (2006). *Leksikon krivičnog prava*. Beograd: SluĐbeni glasnik.
5. Kolarević, D., Paunović, M. (2017). *IstraĐivanje kriminalistički relevantnih obeležja krivičnog dela razbojništva*. *Kultura polisa*, God. 14, br. 33.
6. Marinković, D., Lajić, O. (2019). *Kriminalistička metodika*. Belgrade: University of Criminal Investigations and Police Studies.
7. U.S. Department of Justice: Office of Justice Programs, National Institute of Justice (2010). *Crime Scene Investigation: A Guide for Law Enforcement – research report*.
8. Zdravković, Lj. (2012). *DNK analiza i njena primena u kriminalističkoj praksi*. *Zbornik radova Pravnog fakulteta u Nišu*, br. 59.
9. Ťarković, M., Ivanović, Z. (2017). *Kriminalistička taktika*. Belgrade: The Academy of Criminalistic and Police Studies.
10. Ťarković, M. (2005). *Krivičnoprocesni i kriminalistički aspekti uviĐaja na mestu dogaĐaja*. Belgrade.